

SAMDU TARIXI MUZEYINING TASHKIL ETILISHI VA UNDAGI BA'ZI EKSPONATLAR TAHLILI

Magistrant: Abdiyev F

Ilmiy rahbar: Ergashev B.E

Ushbu maqola Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasining asosiy maqsadi Vatanimizda uzoq o'tmishda shakllangan ta'lim tizimi va bu tizimni yaratishga o'zining ulkan mehnatlari singan olimu mutafakkirlarning ilmiy-madaniy meroslarini o'rganish, ilm-fan va maorifimizning bugungi taraqqiyotiga xizmat qilayotgan zamondosh olimlarimizning yutuqlarini targ'ib qilish, Samarqand davlat universiteti tarixi va bugungi faoliyatini haqida yoritilgan,

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohasida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi umumta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim tizimida zamonaviy, yuksak bilimli va iste'dodli kadrlar tayyorlash borasida tub o'zgarishlar yasadi.

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasidagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Samarqand davlat universiteti XV asrda Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatgan oliy madrasalarning, xususan Ulug'bek akademiyasining bevosita vorisi sifatida ta'lim-tarbiya ishlarini olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning milliy g'oya, ilmiy-madaniy merosimizni manbalar asosida chuqur o'rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish orqali Ona-vatanga muhabbat, sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Kuch-adolat va tafakkurda» iboralaridan yoshlar tarbiyasida foydalanish, bu boradagi qarashlarini hayotga tadbiq etish, O'zbekiston ta'lim tizimining o'rta asrlardagi shakllanishi va mustaqillik yillaridagi tadrijiy rivojlanishini keng ommaga etkazish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida ilmiy-amaliy muzey-laboratoriya yaratish g'oyasi jamoa tomonidan ma'qullandi.

Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasining asosiy maqsadi Vatanimizda uzoq o'tmishda shakllangan ta'lim tizimi va bu tizimni yaratishga o'zining ulkan mehnatlari singan olimu mutafakkirlarning ilmiy-madaniy meroslarini o'rganish hamda Mustaqillik yillarida Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan o'rta tashlangan va jahonda tan olingan «Kadrlar tayyorlash milliy modeli»ning tarixiy va ilmiy ahamiyatini ochib berish, ilm-fan va maorifimizning bugungi taraqqiyotiga xizmat qilayotgan zamondosh


olimlarimizning yutuqlarini targ'ib qilish, universitetning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy nomi bilan atalishining sabablarini ochib berishdan iboratdir.

Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasining asosiy vazifalariga yurtimizda uzoq yillar davomida yaratilgan ilmiy-madaniy merosni avloddan-avlodga etkazish orqali yoshlarni milliy g'oya tomoyillari asosida tarbiyalash, Markaziy Osiyo mintaqasidagi nufuzli va eng qadimgi o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Samarqand davlat universiteti tarixi va bugungi faoliyatini, shuningdek, ko'hna ilm o'chog'i hisoblangan Ulug'bek oliy madrasasi va rasadxonasi tarixini, bu ilm-ma'rifat maskanlarining yurtimiz ilm-fani rivojida tutgan beqiyos ahamiyatini chuqur o'rganish, mazkur tarixiy haqiqatni keng yoritish orqali yosh avlodni ajdodlar merosiga hurmat-e'tibor, ularning munosib davomchilari bo'lib etishish ruhida tarbiyalash, ta'lim-tarbiya sohasidagi uzviy bog'liqligini o'rganish, ijtimoiy-gumanitar hamda tabiiy fanlarni talaba-yoshlarga o'rgatishda, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini yozishda mavjud ekspozitsiya va tarixiy-ilmiy ma'lumotlardan o'quv tajriba maydonchalari sifatida foydalanish, Samarqand shahridagi umumta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalari hamda keng ilmiy-ma'rifiy jamoatchilikni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning ijrosi asosidagi yutuqlar, malakali mutaxassislar va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jumladan, Samarqand davlat universitetida shakllangan ilmiy maktablar namoyondalarining ilmiy-ijodiy faoliyatlari bilan tanishish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish kabi ishlar kiradi.

Yuqorida ta'kidlangan ilmiy-tarixiy asoslar hamda belgilangan maqsad va vazifalar «Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasi» kontseptsiyasini yaratishda asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Muzey ekspozitsiyasidan o'rin olgan moddiy yodgorliklar o'z davrida mavjud hayotni o'zida aks ettirgan.

Samarqandda Mirzo Ulug'bek tomonidan barpo etilgan rasadxona surati.



Muzeyda shuningek quyidagi ekspонатlar ham bor **Markaziy osiyoda ilm-fan va ta'lim taraqqiyoti**

Shohi Zinda majmuasi hududidan topilgan yozuvli g'isht, qadimgi siyohdon va ko'za. Qalamdon soxta mag'z XIX asr, chirog'don XII asr,

oyoqchali chirog'don XII asr. Shohi Zinda hududidan topilgan ko'zalar. Madrasada o'qitilgan ko'zalar. Rasadxona maketi, madrasa qurilishi¹.

O'rta asrlarda Samarqandda ta'lim tarixi. Samarqand . G'ijduvon . Buxoro madrasalari.

Mustaqillik davrida mukofotlanganlar. Botirxon valixo'jayev "Buyuk xizmatlari uchun va el-yurt hurmati" ordeni sohibi. Mavlon Jo'raqulov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi". Dushan Fayziy "do'stlik" ordeni sohibi.

Fan arbobi Vohid Abdullayev. Mahmud Aminov

Davlat va jamoat arboblari ijodkorlari. Sharof Rashidov, Hamid Olimjon , "O'zbekiston xalq shoiri", Omon Matjon "O'zbekiston xalq shoiri".

SamDU tarixi 1927-yil 8-maydagi O'zbek davlat pedagogika instituti to'g'risidagi qarori. Samarqand Oliy pedagogika instituti rektorining N_1 son buyurigi. O'zbekiston davlat oily pedagogika institute (hozirgi SamDU) 1927-yil 22-yanvarda tashkil etilgan. Faoliyatni 3 bo'lim, 4 kafedra mahalliy va boshqa oily o'quv yurtlaridan kelgan 12 nafar o'qituvchi 48 nafar talaba va 27 nafar erkin tinglovchi bilan boshlagan. N.A. Merkulovich director, A. B. Salixonovich director o'rinbosari , M.P.Repnikov ilmiy kotib lavozimida ish boshlagan.

Sharq miniaturasi va adabiyoti. Proektiv geometriyaga doir misolning maketi. R. Iskandarov "matematik logika elementlari" kitobining qo'lyozmasi 1970-yil. R Iskandarov oily algebra kitobining qo'lyozmasi 1960-yil. Silindr bo'lagining kesmalari va proeksiyalari. Bernulli leminiskatasi va kardioda chizish uchun qurilma shar bo'lagining kesimlari va proektsiyalari. Sadriddin Ayniyning choponi va uning uy ro'zg'ori amjumlari. SamDU o'quv observatoriyasi Mirzo Ulug'bek observatoriyasi maketi. Qora marmardan yasalgan Nefrit haykalchasi va likopcha geograf Shodi Fozilov tomonidan yasalgan 1988-yil. Kulrang va qorq rangli g'ozg'on marmarlari. Teodalit-osmon jismlarining kordinatlarini o'lchaydigan asbob . 1950-yilda hisoblash mashinasi , chuvalchang uzatma 1960-yil , tishli uzatma 1959-yil, Samarqand Davlat Universiteti (SamDU) kitobi 1927-1977-yillar².

Tarix va Arxeologiya ilmiy maktabi bo'lim. Sopollar. Taqinchoqlar va ro'zg'or buyumlari , "Buyumni yozma "namunasi. Votiv buyumlari , Ochilg'or topilmalari , Samarqand makoni tosh qurollari , ko'kayoz yodgorligi topilmalari, Qo'tirbuloq makonidan topilgan tosh buyumlar.

Sovg'alar. Malaziya islom universiteti sovg'asi, Marmaro universiteti sovg'asi (Turkiya), Shams ko'zi jamoasi sovg'asi(Misr), Kavkaz universiteti sovg'asi (Turkiya), Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi sovg'asi, Rossiya ta'lim vazirligi sovg'asi, Hindistonning O'zbekistondagi

¹ Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasidagi ko'rgazmalar

² Samarqand davlat universiteti ilmiy-amaliy muzey-laboratoriyasidagi ko'rgazmalar

elchixonasi sovg'asi , Kembridj universiteti sovg'asi(Angiliya), Malaziya Putra universiteti sovg'asi, Indoneziyaning o'zbekistondagi elchixonasi sovg'asi va h.k.